lik rejalashtirish, motivatsiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish va emotsional intellektni kuchaytirish orqali har bir shaxs o‘zini mukammal boshqarishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кадырова С.В., Немсева Е.А., Тулчинский Г.Л. Селф-менеджмент. Учебное пособие, Санкт-Петербург, 2013, 113 с.

(2). Назмутдинов В.Я., Яруллин И.Ф. Управленческая деятельность и менеджмент в системе образования личности. Казань, «Школа», 2013, 360 с.

(3). Симонова А.А. Самоменеджмент как технология управления и саморазвития педагога. “Инновационные проекты и программы в образовании”, № 2, 2019, с. 57–65.

Matmusayeva Muhayyo Azamovna (FarDU o‘qituvchisi; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com; ORCID:0009-0005-4893-4114)

BOLALAR O‘YIN MATNLARINING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada matn ma’lum bir davr mahsuli, muayyan voqelikni til vositalarida aks ettiruvchi lisoniy qobiliyat mahsuli ekanligi, bola o‘ziga tushunarli matn orqali ongida olamning antropotsentrik tartibga solingan olam manzarasini yaratishi ta’kidlangan. Shuningdek, matnning kognitiv va lingvomadaniy jihatdan ahamiyati shakl va mazmun birligi, umumiylik va xususiylik uyg‘unligi tamoyilida aks etishi, bolalar uchun yaratilgan matnlarda bolalarga xos ichki kechinmalarni tasvirlash natijasida voqelik vujudga kelishi misollar orqali dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *matn, antropotsentrizm, lingvomadaniyat, lisoniy qobiliyat, omil.*

Матмусаева Мухайё Азамовна (преподаватель ФерГУ; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com; ORCID:0009-0005-4893-4114)

КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ДЕТСКИХ ИГРОВЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация. *В данной статье подчеркивается, что текст является продуктом определенного периода, результатом языковой способности, отражающей конкретную действительность языковыми средствами, и что ребенок формирует в своем сознании антропоцентрически упорядоченную картину мира через понятный ему текст. Также отмечается, что когнитивное и лингвокультурологическое значение текста проявляется в принципе единства формы и содержания, гармонии общего и частного. На примерах показано, что в текстах, созданных для детей, реальность возникает в результате описания внутренних переживаний, характерных для детей.*

Ключевые слова: *текст, антропоцентризм, лингвокультура, языковая способность, фактор.*

Matmusayeva Mukhayyo Azamovna (Teacher at FerSU; e-mail: muhajematmusaeva@gmail.com; ORCID:0009-0005-4893-4114)

COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL ASPECTS OF CHILDREN'S PLAY TEXTS

Annotation*. This article emphasizes that text is a product of a specific period and a result of linguistic ability to reflect a particular reality through language. It highlights that children create an anthropocentrically ordered worldview in their minds through texts they can understand. Additionally, the cognitive and linguocultural significance of text is shown to be reflected in the principle of unity between form and content, and the harmony of general and specific aspects. Examples demonstrate how reality emerges in children's texts through the depiction of inner experiences unique to children.*

Keywords: *text, anthropocentrism, linguoculture, linguistic ability, factor.*

Kirish. O‘zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari, matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bag‘ishlangan muayyan ishlar o‘zida antropotsentrik yo‘nalishni aks ettirgan bo‘lib, bu masala o‘zbek bolalar folklori, ya’ni, og‘zaki ijodi hamda yozma badiiy matni misolida antropotsentrik jihatdan tadqiq etishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Sir emaski, dunyo tilshunosligida matnni antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganish, muayyan kommunikativ vaziyatlarga milliy-madaniy omillarning ta’siri hamda tilni universal-obyektiv, subyektiv-milliy aspektda uning sohibi bilan birga o‘rganish va o‘rgatish masalasi tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu esa asrimiz boshlaridanoq lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv va psixolingvistik tamoyillarning taraqqiyotiga va istiqboliga zamin hozirladi. Matn va nutq esa shunchaki, sintaktik-semantik jihatdan birikkan nisbiy mustaqil gaplar ketma-ketligigina emas, balki muayyan vaziyatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan verbal muloqot uculi, so‘zlashuvchilarning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqeyi, tafakkuri, milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. No-

minativ-pragmatik paradigma sanalgan antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi shaxsni, ma'lum vaziyatda so'zlovchi va tinglovchi holati va xususiyatini o'rganish, bilish bilan bog'liqdir.

Har qanday matn ma'lum bir davr mahsuli, muayyan voqelikni til vositalarida aks ettiruvchi lisoniy qobiliyat mahsulidir. Bola o'ziga tushunarli matn orqali ongida olamning antropotsentrik tartibga solingan olam manzarasini yaratadi. Xususan, matnning kognitiv va lingvomadaniy jihatdan ahamiyati shakl va mazmyn birligi, umumiylik va xususiylik uyg'unligi tamoyilida aks etadi. Bolalar uchun yaratilgan matnlarda bolalarga xos ichki kechinmalarni tasvirlash natijasida voqelik vujudga keladi. Bunda muallif turli sath birliklaridan aynan bolalarga xoslarini tanlab, matn tuziladi.

Adabiyotlar tahlili. R.H.Davlatova matnlarda kishilarga qo'yilgan ayrim laqab, taxallusni ifodalovchi atoqli otlar ham shaxsga, ham uning muayyan belgisiga ishora qilganda ularning deyktik doirasining kengayishini ta'kidlaydi [1]. Bu holat, ayniqsa, bolalarga xos egotsentrik xususiyatli matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. M.Qurbonova bolalar nutqida mavjud bo'lgan takrorlar konnotativ ma'no ifodalashini ta'kidlagan [2]. Jumladan, "Leksik birliklar takrori konnotativ ma'noni hosil qiluvchi pragmatik vosita sifatida, ayniqsa, bolalar nutqida ko'p kuzatiladi. Bolalar nutqida leksik birliklar takrorining turli ko'rinishlari aks etadi. Ko'pincha, takror yordamida ta'kidni kuchaytirish asosida nutqning ta'sirchanligi ta'minlanadi" deb bolalar nutqida takrorning o'ziga xos jihatlari xususida fikr yuritadi.

A.K.Frolov bolalar uchun yaratilgan matnlar bolalarga xos refleksiyaning vujudga keltirishini ta'kidlaydi [3]. U bolalar uchun yaratilgan badiiy prozaik matnlarni lingvistik aspektda tahlil qilib, asar sujeti va mazmuni bolalarga xos refleksiyani hosil qilishini misollar bilan izohlaydi. Tanqidiy fikrlash tarzida baholanadigan refleksiya atamasi pedagog-psixologlar tomonidan "Inson yon-atrofidagi odamlarga qarab, guyoki, oynada o'zini ko'rganday tasavvur qilishi, psixologiyada refleksiya" sifatida izohlanadi. M.Yo'ldoshev [4] tasnifiga ko'ra, bolalarga xos matnlarni hajm belgisi, ifoda maqsadi va mazmun-mohiyatiga qarab, turli tiplarga ajratish mumkin. Olim matnlarni hajm nuqtayi nazaridan tasniflar ekan, ularni minimal matn va maksimal matnlarga ajratadi. Matn uslub jihatidan ilmiy, badiiy hamda rasmiy, ommabop kabilarga bo'linsa, mazmun ifodasi, maqsadiga ko'ra, quyidagilarga ajratiladi:

1. Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narrative – narrativ).
2. Tasviriy matn (Le texte descriptive – deckriptiv).
3. Izoh mazmunli matn (Le texte argumentatif – argumentli).
4. Didaktik matnlar (Le texte explicatif – eksplikativ).
5. Xabar mazmunli matnlar (Le texte informatif – informativ).
6. Buyruq mazmunli matnlar (Le texte injonctif – injonktiv).
7. Hissiy ifoda mazmunli tur (Le texte expressif – ekspressiv)ga bo'linadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tadqiq etishda tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, differensial-semantik, qiyoslash va distrubutiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi antropotsentrik yondashuv asosida muammoning aniq qo'yilganligi, ilmiy ma'lumotlarning nashr etilgan manbalardan olinganligi, misollar bilan dalillangan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish mumkinligi, misol uchun tanlangan matnlar o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda tanlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar. Matnni tushunish ko'rsatkichlari intralingvistik (ichki) va ekstralingvistik (tashqi) omillarga bog'liq. A.Obidjonning "Jaqqi" hikoyasida shevaga xos *ena, burishta va jaqqi* so'zlaridan voqea-hodisa vodiy qishloqlarining birida, muallifning tug'ilgan joyi – Oltiariqda ro'y berayotganini sezish mumkin. Masalan: ***Ena**sining yana bir g'alati gapini ilib olgan O'g'iloy: "Iy! "**Burishta**" degani nima?" – deb kampirga battardan suykanadi.*

*–**Burishta** degani – doim, hadeb degani-da, – choy ho'playotib, tushuntiradi enasi. – SHuniyam bilmaysanmi, **jaqqi?** – Iy! "**Jaqqi**" nima? – deya tag'in gapni kavlaydi O'g'iloy. Enasi burushqoq qo'lida nevarasining sochini to'zg'itib erkalatadi: – Sendaqangi tinmay gapiradiganlarni **"jaqqi"** deyishadi. Uqdingmi?*

Misoldagi *jaqqi* ko'p gapiradigan bolaning audialligiga ishora qiluvchi laqab, ya'ni, belgi deyksisi bo'lib, muallifning voqelikka nisbatan subyektiv munosabatini ham aks ettiradi.

***Qizalog'im** oppog'im, alla.*
Qora ko'zim, qunduzim, alla.
***Muharramxon** – podsho qiz.*

Bolalar uchun yaratilgan matnlarning narrativ, deskriptiv, ekcplikativ turlarini ajratish mumkin. Ularning ayrimlarini izohlab o'tamiz:

1. Bolalar olamiga xos hikoya mazmunli matnlarda izchil va yaxlitlovchi ohang, rivojlanib boruvchi ifoda tarzi, monologik va dialogik nutqning uyg'unligi va muallif omilining ustuvorligi namoyon bo'la-

di. Bolalar uchun qayta ishlangan ertaklar, yosh xususiyatlariga tayanilgan hikoya matnlarini narrativ matn tipiga kiritish mumkin. Masalan, xalq ertaklarini tabdillash usuli orqali bolalarga xos quyidagicha narrativ matn hosil qilingan:

Kunlardan bir kun O'ktam, daraxt tagiga o'tirib: "Olloh menga bir kuch bersa-yu, qo'limni nimaga ursam, o'sha narsa tillaga aylanib qolaversa, ana o'shanda og'ir mehnatdan qutulib, farovon hayot kechirgan bo'lar edim", – deya xayol sura boshlabdi. To'satdan uning qulog'iga: –O'ktam! Hozir sen tilagingga yetasan! Qo'lingni biron narsaga tekkizgin, darhol tillaga aylanib qoladi, – degan ovoz eshitilibdi.

Mazkur tipli matnlarda bolalar olamiga xos tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mushtarak holda qo'llanilishi mumkin.

2. Bolalar olamiga xos tasviriy matnlar (Le texte dessriptif). Bolalar tabiatan atrof-muhitga, harakatlanuvchi narsa-buyumlar, hayvonot va nabotot olamiga qiziquvchan bo'lganligi sababli ularning olamiga xos deskriptiv matnlar badiiy adabiyotda salmoqli o'rin egallaydi. Matn birliklari o'zaro partonimik munosabatni hosil qilib, butun orqali bo'lak, aksincha, bo'lak orqali butun tasvirlanadi. Masalan, quyidagi misolda voqealar tasviriga e'tibor qaratilgan. Chunki bola ma'lumotlarni 83 foiz ko'rish orqali, 10 foiz eshitish orqali qabul qiladi, shu bois bolalarga xos matnlarda narsa-buyumning tashqi ko'rinishlari, voqea-hodisalarning tasviriga alohida e'tibor qaratilgan.

Masalan, quyidagi matnda bolaga ma'lum bo'lgan rang, shakl, xil-xususiyatga ko'ra, o'xshatish usulidan foydalanilgan: *Bir to'p bor ekan. U dum-dumaloq, bir tomoni gul bargiday yashil, juda chiroyli ekan. Uning qo'li ham, oyog'i ham bo'lmagan ekan. Shunga qaramay, to'p tinib-tinchimas ekan.*

3. Bolalarga xos izoh mazmynli matn (Le texte argumentatif – argymentli matn). Matnlarda voqea-hodisalarning ishonarli bo'lishi, bolalar dunyoqarashiga mos tarzda yaratilishi izoh mazmunli matnlarning asosiy maqsadi sanaladi. Fikr va qarashlarni isbotlash uchun turli dalil va izohlar keltirilishi, asoslash, ishontirish, o'zini oqlashga urinish oqlashga urinish argumentli matn tipining o'ziga xos jihatlaridan biri sanaladi. Masalan, mazkur izoh mazmunli matnda *ammo* inkor bog'lovchisi fikr bilan keltirilgan dalil o'rtasida mantiqiy bog'liqlik hosil qilgan:

Bahor keldi. O'riklar gulga burkandi. Lekin Hamroboy otaning hovlisidagi bir tup o'rik gullamadi. Har bahor o'rik qiyg'os gullaganda otaga olam-olam quvonch olib kelardi. Ammo bu yil...

Hamroboy ota hasrat bilan o'rikning g'adur-budur tanasini qo'llari bilan ohista siypaladi. Uning ko'z oldiga o'g'li Rustamjon keldi. "O'g'lim bu o'rikni o'z qo'li bilan o'tqazgan edi. Qaribdi, ha qaribdi"– dedi va ko'zlariga yosh qalqdi. Otaning yosh, navqiron o'g'li Rustamjon urushda halok bo'lgan edi. Ota shu o'rik orqali o'g'lini eslab, Rustamjonni ko'rganday bo'lib yurardi (S.G'ofurov. "Mag'zi shirin" hikoyasi).

Yuqoridagi misolning birinchi abzatsida dalil, ikkinchi abzatsida esa izoh, asos keltirilgan.

4. Bolalarga xos didaktik matnlar (Le texte explicatif – eksplikativ matn)ning mazmuniy subtekstida ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat ustuvorligi bilan ajralib turadi. Bolalar adabiyotining tadrijiy taraqqiyoti XX asrning birinchi choragidan boshlangan bo'lsa, jadidchilik harakati natijasida paydo bo'lgan ma'rifatparvar adabiyot, mumtoz adabiyotning an'analari, so'ng rus adiblaridan tarjimalar didaktik xarakterga ega matnlar sifatida o'zbek kitobxoniga ma'lum bo'lgan.

Eksplikativ matn birligi bo'lgan didaktemalar tayyor holda matndan tashqarida mavjud bo'lib, retsipientning eksplikativ qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, quyidagi misolda keltirilgan maqol didaktema sifatida matnning eksplikativligini oshirgan:

***Yolg'iz bola – yalmog'iz bola**, degan ekanlar. Sen hech o'nglanmading. Tirikligimda seni ko'p ardoqladim, lekin o'zimga ham, senga ham ziyon qilgan ekanman. Endi bo'lgan ish bo'ldi, o'lar oldidan senga aytadigan gapim shuki, kuning kelib, hech narsang qolmaganida, bog'ga chiqib, daraxtlarning ostini kovlab chiqasan. Yigit bunga hech parvo qilmay, kayf-safoda yuraveribdi.*

Misoldan ayon bo'ladiki, maqol didaktema sifatida matnning shakllanishiga yordam bergan.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, insonning ijtimoiy olamda muayyan ijtimoiy faol fuqarolik o'rnini belgilovchi ona tiliga munosabatini ko'rsatuvchi eng muhim lisoniy birlik bu matndir.

Matn, tor ma'noda, tilning barcha sathlarini uyg'unlashtirgan nutqiy-sintaktik birlik bo'lsa, keng ma'noda, so'zlovchi yoki yozuvchi shaxsining lisoniy salohiyatini o'zida to'liq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matn millatning lisoniy ko'zgusi, lisoniy daraxtning mevasi.

O'zbek tilshunosligida matn tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda, muallifning matn semantikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq ilg'or fikrlar yoritilgan bo'lib, ular psixolingvistika va pragmalingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarning yaratilishiga zamin hozirladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Davlatova R.H. O‘zbek tilining deyktik birliklari. Filol.fan. d-ri (DSc) ... dis. avtoref., Toshkent, 2020, 18-bet.

(2). Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqining pragmalingvistik aspekti. Toshkent, 2018, 121-bet.

(3). Фролов А.К. Языковая специфика текстов художественной прозы для детей. Автореф. дисс.канд. ... филолог.наук, Тверь, 2003, с. 11.

(4). Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va yning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan”, 2007, 12-bet.

(5). D.M.Yuldasheva. Muallif nutqi agnonimlari (Siddiq Mo‘min ijodida misolida). Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 volume 2, special issue, 8. 2023.

(6). Yuldasheva, D., Abdug‘aniyeva, D. (2023). Bolalar nutqidagi lingvistik xususiyatlar nazariyasi. Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana, 1(4), p. 52–54. izvlecheno ot https://www.in academy.uz/index.php/yopa/article/view/12199

(7). M.Matmusayeva. O‘yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi. FarDU, “Ilmiy xabarlar” jurnali, 2024, 6-son, “Aniq va tabiiy fanlar”https://t.me/FarDuilmiyxabarlar

(8). M.Matmusayeva. Maktabgacha ta’limda o‘yinlar – soha terminlari sifatida. FarDU, “Ilmiy xabarlar” jurnali, 2024, 6-son, “Aniq va tabiiy fanlar”https://t.me/FarDuilmiyxabarlar.

Mavlanova Nasiba Axmedovna (Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi https://orsid.org/0009-0003-0699-5141; e-mail:ismoil_nur84@mail.ru; UDK: 631.53.04:633.511)

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TA’LIM JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASH VA DALILLASH MADANIYATINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada tanqidiy fikrlash jarayoni inson ongidagi bir nechta kognitiv komponentlardan –kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar tashkil topish masalalari yoritilgan. Ushbu komponentlar insonning bilish faoliyatini boshqarish, tahlil qilish va yaxlit fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *metakognitiv komponent, mustaqil fikrlash, keys-stadi, debatlar, brainstorming usuli, pedagogika, psoxologiya.*

ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И АРГУМЕНТАЦИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В статье рассматривается процесс критического мышления человека, включающий несколько когнитивных компонентов – когнитивный, метакогнитивный и рефлексивный. Эти компоненты играют важную роль в развитии интеллекта человека, анализа и формировании целостного мышления.*

Ключевые слова: *метакогнитивный компонент, самостоятельное мышление, практические примеры,* дебаты, метод мозгового штурма, педагогика, психология.

THE IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING AND ARGUMENTATION CULTURE IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN COMPREHENSIVE SCHOOLS

Annotation. *The article examines the process of critical human thinking, which includes several cognitive components – cognitive, metacognitive and reflexive. These components play an important role in the development of human intelligence, analysis and formation of holistic thinking.*

Keywords: *metacognitive component, independent thinking, practical examples, debates, brainstorming method, pedagogy, psychology.*

Kirish. Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash va dalillash madaniyatining uyg‘unligi o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy tarzda bayon qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bu esa ularning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash jarayoni inson ongidagi bir nechta kognitiv komponentlardan tashkil topadi: kognitiv, metakognitiv va refleksiv komponentlar. Ushbu komponentlar insonning bilish faoliyatini boshqarish, tahlil qilish va yaxlit fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kognitiv komponent insonning bilish jarayonini tashkil etuvchi asosiy mexanizmlardan biri bo‘lib, ma’lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish va ularni qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu komponent insonga mantiqiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash imkonini beradi. Jon Dyui ta’kidlaganidek, “Bilimga ega bo‘lish bu faqat faktlarni yodlash emas, balki ularni tushunish va mantiqiy tarzda joylashtirishdir” [1].

Adabiyotlar tahlili. Metakognitiv komponent esa insonning o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilish, baholash va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Metakognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘lgan inson o‘z bilim da-